

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Egamberdiyeva Roxatoy Mamajanovna
Namangan muhandislik-texnologiya instituti,
Kimyo kafedrası assistenti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6793066>


Annotasiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ta'limining turlari va shakllari, mustaqil ta'limni rejalashtirish, tashkil qilish, mustaqil bilim olish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, yangi bilimlar, bilimlarni qo'llash, ko'nikmalar, nazorat qilish, axborot izlash, savollar, o'qituvchi, talaba, elektron shakl.

Xozirgi kunda yurtimizdagi barcha oliy ta'lim muassasalarini asosiy vazifalardan biri chuqur nazariy, amaliy bilimlarni egallashi bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, taxlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashdir. Dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq mustaqil o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasa (OTM) ning asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Talaba mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati, tavsiyalari asosida auditoriyada yoki auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir. Talaba mustaqil ishini tashkil etishda fanning xususiyati va har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi, qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi.

Talaba mustaqil ta'limini tashkil etish shakllari



Belgilangan maqsadga muvofiq mustaqil ta'lim (MT): a) Yangi bilimlarni o'rganish uchun MT. b) Bilimlarni qo'llash va yaxshilash ko'nikmalari uchun MT. v) Bilimlarni nazorat qilish va ko'nikmalar uchun MT.

Tashkil etilishiga ko'ra MT: 1.Frontal holda; 2.Individual shaklda; 3.Guruh bilan ishlash.

Tabiatiga ko'ra MT: 1.Nusxalash; 2.Evristik; 3.Tadqiqot.

Talabalarni mustaqil ishlarini bajarilishiga ko'ra quyidagi shakllarda joriy etilishi mumkin:

- Talabanning bevosita o'zi tomonidan mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari;
- An'anaviy shakldagi o'qituvchi rahbarligida talabanning mustaqil ishi;
- Elektron shakldagi o'qituvchi rahbarligidagi talabanning mustaqil ishi.

Talabanning mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

- 1.Darsga tayyorlanish - ma'ruza matnlari, video materiallar, amaliy va laboratoriya ishlari bayonlarini o'rganish va konspekt qilish;
- 2.Axborot izlash - o'z qiziqishlaridan kelib chiqib taqdim qilingan dayjest orqali internet materiallarini o'rganish;
- 3.FAQ(ko'p so'raladigan savollar) - o'zini qiziqtirgan muammolarni o'rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash;
- 4.Fan mavzulari bo'yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta'lim platformalarida fikr almashish;
- 5.Test yechish - o'rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliga oid materiallarni mustahkamlash ;
- 6.Nazorat ishiga tayyorlanish - fan bo'yicha kutilayotgan oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko'rish.

An'anaviy shakldagi o'qituvchi rahbarligida talabanning mustaqil ishi (O'RTMI):

- 1.Masala yechish - amaliy mashg'ulot mavzusi bo'yicha berilgan masalalarni yechish va uni yozma taqdim etish;
- 2.Referat - muammoning yozma bayoni, bunda adabiy manbaalar sharhlanadi yoki ilmiy ish, kitoblar tahliliy bayon qilinadi;
- 3.Kollokvium - o'quv modulining nazariy qismini o'zlashtirilishini tekshirish maqsadida suhbat uyishtirish;
- 4.Esse - dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- 5.Taqdimot - berilgan mavzu bo'yicha slayd va video materiallar vositasida chiqish qilish;
- 6.Keys-stadi - ishlab chiqarishdagi muammoli vaziyatlar bo'yicha belgilangan shakldagi topshiriqlar bo'yicha yechim izlash;
- 7.Ish o'yinlari - kasbiy faoliyat jarayonlarini imitatsiya qilish,sahnalashtirish, rollarni ijro ijro etish orqali kasbiy ko'nikmalar orttirish;
- 8.Glossariy - berilgan mavzu bo'yicha atamalarni qisqa izohlash;
- 9.Guruh loyihasi – 3,5 ta talabanning hamkorlikda loyiha ishini bajarish;
- 10.Hisob-chizma ishlari – odatda texnik fanlar(muhandislik grafikasi, elektrotexnika, axborot texnologiyasi va h.k) bo'yicha amalga oshiriladigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan grafik va hisob ishlari;

- 11.Kurs ishi - fan yoki fanlar majmuasi muammolari bo'yicha belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida bajariladigan yozma va hisob ishlari;
 - 12.Kurs loyihasi - fan yoki fanlar majmuasi(texnik mexanika, texnologik jaroyan va qurilmalar) muammolari bo'yicha belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida bajariladigan grafik chizmalar ilova qilinadigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan hisobot ishlari;
 - 13.Diplom loyihasi - mutaxassislik faniga oid berilgan mavzu bo'yicha ishlab chiqarish korxonasini yoki uning bo'linmasini loyihalashga qaratilgan, grafik chizmalar va hisob ishlari bayon qilinadigan loyihaviy ish;
 - 14.Amaliyot hisoboti - o'tkazilgan malakaviy amaliyot (tanishuv, ishlab chiqarish, bitituv amaliyoti) bo'yicha belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan hisobot;
 - 15.Fan to'garaklarida ishtirok etish - talabani fan to'garaklarida maket, slayd, namunalar kabi ko'rgazmali qurollar tayyorlash;
 - 16.Tanlovlarda ishtirok etish - talabani o'qituvchining ilmiy rahbarligida turli tanlovlarda ishtirok etishi(talabalar startap loyihalari va h.k) ;
 - 17.Fan olimpiadalarida qatnashish - fanlar bo'yicha OTMlar o'rtasida o'tkazilgan olimpiadalarda ishtirok etish(kimyo, umumiy kimyoviy texnologiya va h.k.);
 - 18.Ilmiy anjumanlarda ma'ruza qilish - fanga oid ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha OTM, Respublika va Xalqaro miqyoslarda o'tkaziladigan ilmiy-texnikaviy anjumanlarda ma'ruza qilish;
 - 19.Ilmiy tesiz va maqolalar chop etish - ilmiy anjumanlar to'plamlarida tezislarlar, jurnallarda tadqiqot mavzusi bo'yicha maqolalar chop qilish;
- O'RMTI lar, ularning bayoni, mavzulari, topshiriqlari, o'tkazish shakllari, soatlar hajmi fan sillabusida modullar bo'yicha keltirilgan. O'RMTI lar bo'yicha oliy ta'limda asosan amaliyot va laboratoriya o'qituvchilari talabalar bilan darsdan bo'sh vaqtlarda ish olib borishadi, ularni yakuniy nazoratga tayyorlab borishadi. Mustaqil ta'lim bilan ishlashda ko'proq 1-kurs talabalarida qiyinchilik yuzaga keladi. Bunga sabablardan qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin:
- a) OTM dagi o'quv jarayonini maktab o'quv jarayonidan farqlanishi, katta auditoriyalarda bir necha guruhlar birlashtirilgan holda ma'ruzalar olib borilishi va bunda talabalarni ma'ruza yozishdagi qiyinchiliklar;
 - b) juda ko'p talabalarni uydan va ota-ona qaramog'idan uzoqda mustaqil holda yangi sharoitda yashashlari;
 - c) Axborot resurs markazlari va kutubxonada o'zlariga kerakli ma'lumotlarni topishdagi qiyinchiliklar;
 - d) Talabalarni mustaqil o'qish uchun vaqt taqsimotini belgilay olmasliklari va shaxsiy muammolarini bo'lishi.

Fan bo'yicha O'RTMI butun akademik o'qish davrida sana, vaqti, audoriyasi va tyutorlari ko'rsatilgan holda grafik tarzda o'tkaziladi. Shu vaqt ichida 1-kurs talabalariga:

- OTMning texnik imkoniyatlari, ARM va kutubxonaning o'quv -uslubiy ta'minoti bilan tanishtirish va ulardan unimli foydalanishga o'rgatish;
- O'RTMI mashg'ulotlarini interfaol usularda va maslahat shaklida olib boorish.
- talabalar tomonidan mobil qurilma orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari nazorati.

Talabalarga to'g'ri yo'nalish berilsa, keyingi kurslarda ular mustaqil ishlarini bimalol bajara olish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamajanovna, E. R. (2020). Modern-innovative mechanisms of teaching chemistry in higher education and the essence of their content. International Engineering Journal For Research & Development, 5(Special Issue), 3-3.
2. Khoshimov, F. F., Egamberdieva, R., & Fayzullaeva, M. F. (2020). Prospects for the development of the Uzbekistan-Japanese education system. International Engineering Journal For Research & Development, 5(Special Issue), 4-4.